

**O'ZBEKISTON – AQSH ALOQALARINING ISTIQBOLLARI***Oripova Dilfuza Zafarjon qizi**(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 304-guruh talabasi)**Abdullahayev Begzodbek Xusniddin o'g'li**(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonning mustaqillik yillarda AQSH bilan diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, to hozirgi kungacha ikki davlat o'rtasidagi siyosiy uchrashuvlar, shartnoma va bitimlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Bill Clinton, integratsiyalashuv, delegatsiya, aviatexnika, Nyumont-Mayning“, „Mitsui“, «Xalqaro miqyosdagi lider», Xopkins, Vashington, Indiana, Kaliforniya, Ogayo, Arizona.

**Abstract:** This article describes the establishment of diplomatic relations with the USA during the years of Uzbekistan's independence, political meetings, contracts and agreements between the two countries until now.

**Key words:** Bill Clinton, Integration, Delegation, Aviation, Newmont Mining, Mitsui, Global Leader, Hopkins, Washington, Indiana, California, Ohio, Arizona.

O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992-yil 19-fevralda AQSH davlat kotibi O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992 yil 16-mart kuni O'zbekistonda AQSH elchixonasi, 1993 fevral oyida AQSHda mamlakatimiz elchixonasi ochilgan.O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 1996-yil iyunda AQSHda bo'lishi O'zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi. Islom Karimov AQSH Prezidenti Bill Clinton bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish, tomonlar manfaatiga daxldor bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik masalalari muhokama etildi. Bill Clinton AQSH ma'muriyati Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqilligi, barqarorligi va ravnaqidan manfaatdor ekanini, O'zbekiston bilan qalin munosabatlar o'rnatishni istayotganini, O'zbekistonning tezroq dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi yo'lida yordam berajagini ta'kidladi. 1996-yil O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasi ochildi. O'zbekiston Prezidenti boshliq davlat delegatsiyasining AQSHda bo'lishi chet el sar-moyasi uchun respublikada yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risidagi axborot taqchilligini bartaraf etdi. Tashrif chog'ida ikki tomonlama hujjatlar majmui imzolandi. Buxori viloyatidagi gaz konlarini o'zlashtirish loyihasini mablag' bilan ta'minlash, surkov materiallari ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona barpo etish, qishloq xo'jaligi korxonalariga lizing xizmati ko'rsatuvchi qo'shma korxona tashkil qilish to'g'risidagi bayonnomalar, O'zbekiston Respublikasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) Milliy banki bilan AQSh Savdo va taraqqiyot agentligi o‘rtasida Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida birgalikda aviatexnika ishlab chiqarish loyihasining texnik-iqtisodiy asoslamasini tayyorlash uchun Amerika tomonidan grant ajratish to‘g‘risidagi bitim, O‘zbekiston TIF Milliy banki bilan „Bank of America“ o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurelar qo‘mitasi bilan „Nyumont-Mayning“ kompaniyasi o‘rtasida hamjihatlik to‘g‘risidagi memorandum, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geol. va mineral resurelar qo‘mitasi bilan „Nyumont-Mayning“ va „Mitsui“ korporatsiyalari o‘rtasida „Qizilolmasoy“ va „Ko‘chbuluoq“ ruda konlarini birgalikda o‘zlashtirish to‘g‘risidagi bitim shular jumlasidandir. 1999-yilda O‘zbekiston bilan AQSh o‘rtasidagi tovar aylanmasi 282 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. O‘zbekiston AQShdan bug‘doy, xalq iste’mol mollari, asbob-uskunalar sotib oladi. Eksport asosan paxta tolasidan iborat. AQShdagи turli firma va kompaniyalarning O‘zbekiston bilan muvaffaqiyatli hamkorligi, delegatsiyalar almashuvi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga imkon beradi. AQSh—O‘zbekiston munosabatlari asta-sekin rivojlanib, AQShning 11-sentabr 2001-yilda Afg‘onistonga hujumlaridan so‘ng, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilanishi eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi.

2002-yil mart oyida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy davlat tashrifi bilan AQSHda bo‘ldi. AQSHni sinovli damlarda qo‘llab-quvvatlagani uchun 2002-yil Islom Karimov Amerika jamoatchiligi tomonidan «Xalqaro miqyosdagi lider» mukofoti bilan taqdirlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 15-17 may kunlari AQSHga amalga oshirgan rasmiy tashrifi AQSH oliy rahbariyati, ishbilarmon va akademik doira vakillari tomonidan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlik rivojiga yangicha sur’at bag‘ishlagan tarixiy voqeа sifatida e’tirof etildi.

2020-yil noyabr oyida O‘zbekiston va AQSH yillik ikki tomonlama maslahatlashuvni Strategik hamkorlik muloqotiga aylantirish qarorini ma’qulladi. Ayni jarayonda siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, ta’lim sohalaridagi yaqin hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

2023-yil 19 sentyabr kuni Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohda BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev chiqish qilib, ahillik va amaliy hamkorlik ruhini saqlab qolish, mamlakatlarni umumiyl manfaatlar mavjud qarama-qarshiliklardan ustun bo‘lishi asosida birlashtirish lozimligini ta’kidladi. Davlatimiz rahbari global tahdidlarga qaramay, mamlakatimiz barqaror o‘sish sur’atini namoyish etayotganini qayd etdi. So‘nggi olti yil davomida yalpi ichki mahsulot bir yarim barobardan ko‘proq oshdi. Asosiy maqsad – 2030-yilga borib, ushbu ko‘rsatgichni ikki barobar oshirish.

Shuningdek, yaqin yillar ichida Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish ham ustuvor vazifalardan biridir.

So'nggi yillarda parlamentlararo aloqa, xavfsizlik, huquq sohalari va mudofaa vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik ancha faollahdi. Ikki mamlakatning yetakchi ekspertlari almashinuvi, davlat idoralari munosabatiga oid tashkiliy-huquqiy masalalar muhokamasi izchil tus oldi. Davlatlar o'rtasida yuzaga kelgan siyosiy o'zaro ishonch boshqa yo'naliishlarda ham hamkorlik uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning qator oliy o'quv yurtlari Xopkins, Vashington, Indiana, Kaliforniya, Ogayo, Arizona universitetlari va boshqa oliy ta'lim muassasalari bilan aloqa o'rnatgan.

2019-yil sentyabrda Toshkentda Webster universiteti filiali ochildi. "Ochiq eshiklar" xalqaro ta'lim almashinuvi hisobotiga ko'ra, 2022-yil AQSHda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni ilk bor 1000 nafardan oshib, 2022/23 o'quv yilida 1089 vatandoshimiz okean ortida ta'lim olgan. AQSH hukumati mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv bazasini takomillashtirish, o'qituvchilar kasbiy ko'nikmasini oshirishga qaratilgan tizimli islohotni olqishlaydi. Tomonlar ta'lim sohasida qo'shma loyihalar amalga oshirishdan manfaatdor, ilm-fan sohasidagi sheriklikni yanada chuqurlashtirish tarafdori. Sog'liqni saqlash, atrof-muhit muhofazasi, IT, qishloq xo'jaligi, seysmologiya kabi sohalar istiqbolli yo'naliishlar sifatida belgilangan.

Umuman, bugungi kunda O'zbekiston – AQSH muloqoti xalqaro huquqning umumiyligi e'tirof etilgan tamoyili va me'yoriga amal qilish, ikki davlat suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligini hurmatlash, bir-biri manfaatini hisobga olish va demokratik qadriyatlarga sodiq qolish xususiyatiga asoslangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. A.V.Vaxabov D.A.Tadjibayeva Sh.X.Xadjibakiyeva Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar.- T.: Baktria press, 2015.
2. Mirziyoev Sh. M. O'zbekiston madaniyatining yangi qirralari –dunyo e'tiborida // «O'zbekiston madaniy merosi» mualliflik turkumi: «Germaniya Federativ Respublikasi to'plamlari» kitob-albomiga kirish so'zi. –T., 2019. –B. 5.
3. B. Sayfullayev "O'zbekiston respublikasi madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi" DSc) dissertatsiyasi Avtoreferati Toshkent –2020 5-b <https://uza.uz/posts/569312>
4. Mansurbek Nemat O'g'li To'xsanov BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA O'ZBEKISTON HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARI // CARJIS. 2022. No
5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/birlashgan-millatlar-tashkiloti-va-o-zbekiston-hamkorlikning-ustuvor-yo-nalishlari> (дата обращения: 17.04.2023).
6. Xudoyberganova, Dilnoza Komiljon qizi AQSHNING MARKAZIY OSIYOGA TASHQI SIYOSATI// ORIENSS. 2021. No11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aqshning-markaziy-osiyoga-tashqi-siyosati>(дата обращения: 17.04.2023)